XALQ DEPUTATLARI PASTDARG‘OM TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-20-140-7-101-K/25 Pastdarg‘om tumani

2026-yilda Pastdarg‘om tumani bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va yer qa’ridan foydalanganlik uchun bazaviy soliq stavkalariga qo‘llaniladigan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni qo‘llash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi “Soliq va budjet siyosatining 2025-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-1014–-son Qonunining 3-moddasi 5-, 6- qismlari bilan O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 445-, 452-moddalariga kiritilgan o‘zgartirishlarga muvofiq, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan, shuningdek Samarqand viloyati Soliq boshqarmasining 2025-yil 2-dekabrdagi 20-184058-son xatini inobatga olib, xalq deputatlari Pastdarg‘om tumani Kengashi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi “Soliq va budjet siyosatining 2025-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-1014-son Qonuni bilan O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 445-, 452-moddalariga kiritilgan o‘zgartirishlar rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman Soliq inspeksiyasining 2026-yilda suv resurslaridan foydalanganlik uchun va yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalarining mutlaq

miqdorlariga nisbatan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni qo‘llash bo‘yicha takliflari inobatga olinsin.

2026-yil uchun Pastdarg‘om tumani hududida suv solig‘i stavkasi 1-ilovaga hamda yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq stavkasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari - tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i J.Pardayev, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari (U.Maxmanazarov), tuman Soliq inspeksiyasi (N.Razzoqov) bilan birgalikda mazkur qaror o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

4. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

5. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Pastdarg‘om tuman Kengashining mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi B.Ochilov hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari J.Pardayev zimmasiga yuklatilsin.

6. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Kengash raisi **RAXMANOV SHERZOD SHUXRATOVICH**

Xalq deputatlari Pastdarg‘om tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-20-140-7-101-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga 2026-yil uchun qo‘llaniladigan koeffitsientlar

(qishloq ho‘jaligi, elektr stansiyalari, kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalari va ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan yirik soliq to‘lovchilarga nisbatan tatbiq etilmaydi)

(ming so‘mda)

T/r	Tuman nomi	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, shu-ningdek YaTTlar		Sanoat korxonalari		Avtotransport vositalarini yuvish		Alkogolsiz va alkogolli ichim-liklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari)	
		Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti
1	Pastdarg‘om tumani	1,10	1,10	1,10	1,10	1,30	1,10	1,10	1,10

Xalq deputatlari Pastdarg‘om tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-20-140-7-101-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga 2026-yil uchun qo‘llaniladigan koeffitsientlar*

ming so‘mda

T/r	**Tuman nomi**	Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh-chig‘anoq, ohaktosh *(sement va ohak ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari)*, dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosienitlar, sienitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanes jinslari, karbonat xom ashyosi, travertin	Tabiiy bezaktoshdan bloklar	Marmar	Granitlar	Gips toshi, gips va angidrid, ganch	G‘isht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar	Qum-shag‘al aralashmasi, qurilish qumi, qumtoshlar)
1.	Pastdarg‘om tumani	1,00	1,00	1,00	1,00	1,00	1,30	1,30